BO‘LAJAK INGILIZ TILI O‘QITUVChILARINING MUSTAQIL TA’LIMINI ZAMONAVIY YONDAShUVLAR ASOSIDA TAShKIL QILISh (UMUMIY PEDAGOGIKA FANI MISOLIDA)

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi – *doktorant*
aoynisaa@gmail.com
Samarqand davlat chet tillar instituti

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ (НА ПРИМЕРЕ ОБЩЕЙ ПЕДАГОГИКИ)

Рашидова Ойниса Хусниддиновна – *докторант*
Самаркандский государственный институт иностранных языков

ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE ENGLISH TEACHERS ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES (ON THE EXAMPLE OF GENERAL PEDAGOGY)

Rashidova Oynisa Khusniddinovna – *doctoral student*
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Tayanch so‘zlar: mustaqil ta’lim, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, integratsion yondashuv, texnologik yondashuv, CLIL yondashuvi, kreativ yondashuv, integratsion yondashuv.

Rezyume. Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish masalasi yoritilgan. Umumiy pedagogika fani misolida talabalar mustaqil ta’limining mazmuni, samaradorligini oshirish omillari hamda innovatsion metod va texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, refleksiya ko‘nikmalari va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning mustaqil ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish va o‘z o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilingan topshiriqlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, будущий учитель английского языка, интегративный подход, технологический подход, подход CLIL, творческий подход, интегративный подход.

Резюме. В статье рассматривается вопрос организации процесса самостоятельного обучения будущих учителей английского языка на основе современных подходов. На примере общей педагогики анализируется содержание самостоятельного обучения студентов, факторы, повышающие его эффективность, и роль инновационных методов и технологий. Также анализируются педагогические подходы, способствующие развитию творческого мышления, навыков рефлексии и цифровых компетенций студентов при организации процесса самостоятельного обучения. Результаты исследования показывают эффективность заданий, организованных на основе современных подходов, в укреплении мотивации студентов к самостоятельному обучению и формировании навыков самоконтроля в процессе подготовки учителей английского языка.

Key words: independent learning, future English language teacher, integrative approach, technological approach, CLIL approach, creative approach, integrative approach.

Summary. The article discusses the issue of organizing the independent learning process of future English language teachers based on modern approaches. Using the example of general pedagogy, the content of students' independent learning, factors that increase its effectiveness, and the role of innovative methods and technologies are analyzed. Also, pedagogical approaches that serve to develop students' creative thinking, reflection skills, and digital competencies in organizing the independent learning process are analyzed. The results of the study show the effectiveness of tasks organized based on modern approaches in strengthening students' motivation for independent learning and forming self-control skills in the process of training English language teachers.

Kirish. Hozirgi zamon talablarga binoan Oliy o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jahon ta’lim standartlariga javob bera oladigan bilimli, zukko va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida Oliy ta’lim o‘quv yurtlarida talabalar faoliyatida mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘qitish va ularning pedagogik bilimlari sifatini oshirish ham pedagogik tizimning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limi nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini ta’minlash, balki zamonaviy ta’lim jarayonida erkin fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oladigan pedagogik shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’lim talabalarning o‘quv faoliyatini rejalashtirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘z o‘zini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

So‘nggi yillarda umumiy pedagogika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar, hamda asosiysi talaba markazlashgan yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirishga zarur pedagogik sharoit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish hamda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M.A.Tursunaliyeva talabalarning mustaqil faoliyatini jadallashtirishda pedagogik shart-sharoitlarning muhim o‘rin tutishini ilmiy jihatdan asoslaydi va o‘qituvchi boshqaruvidagi mustaqil ishlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatib beradi [1:25]. X.A.Shayxova esa ta’lim jarayoniga integrativ hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini qayd etadi [2:56]. N.B.Rejapova CLIL texnologiyasining ko‘p tilli

ta’lim tizimidagi o‘rnini yoritib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda mazkur yondashuvning ahamiyatini ochib beradi [3:101]. Muallif CLILni lingvistik va kasbiy kompetensiyalarni parallel rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali model sifatida baholaydi, Sh.N. Muslimov va Ch.S.Lutfullayevalar integratsion yondashuvning mohiyati hamda nazariy asoslarini tahlil qilib, fanlararo integratsiya ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadilar [4:136]. Ularning fikricha, integratsion yondashuv talabalarning tizimli fikrlashini shakllantirish va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o’quvchilarning kreativ fikrlashining rivojlanishiga xizmat qiladi [5:112]. S.Xo‘jjiyev va D.Axadova tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion faoliyatida akmeologik yondashuvning o‘rni yoritilib, pedagogning kasbiy yetuklikka erishish jarayonida shaxsiy va kasbiy o‘sish omillari muhimligi ta’kidlanadi [6:1531].

Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga umumiy pedagogika fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ta’limni aynan zamonaviy yondashuvlar asosida tizimli va kompleks tashkil etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingiliz tili o‘qituvchilariga umumiy pedagogika fanini o‘qitishda ularning mustaqil ta’limini tashkil qilish jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish hamda ular asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, turli xil tadqiqot metodlaridan tizimli foydalanildi.

Avvalo, kuzatish va nazariy tahlil metodi qo‘llanildi. Kuzatish metodi asosida ingiliz tili yo‘nalishi talabalari uchun umumiy pedagogika fanidan tashkil qilinayotgan mustaqil ta’limdagi mavjud yondashuvlar aniqlandi. Nazariy tahlil metodi orqali esa, xorijiy va mamlakatimizdagi tadqiqotchilarning (Tursunaliyeva M.A., Shayxova X.A., Xo‘jjiyev S., Axadova D., Qurbonov B.N., Muslimov Sh.N., Lutfullayevalar CH.S., Rejapova N.B., Tursunaliyeva M.A.) tadqiqot mavzusiga oid qilgan ishlari tahlil qilib o‘rganildi. Ular o‘z tadqiqotlarida, o‘quv jarayonida CLIL yondashuvi va turli xil zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni tadqiq qilganlar.


Taqqoslash metodi asosida ular tomonidan taklif etilgan yondashuvlar bir biri bilan taqqooslab o‘rganildi. Ushbu jarayonda, kreativ va innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi deyarli o‘xshash ekanligini inobatga olgan holda, maqolada faqatgina kreativ yondashuvdan foydalanish aniqlandi.

Tasniflash va tizimlashtirish metodlari orqali mustaqil ta’limni tashkil qilishda foydalanish zarur bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar turlari aniqlandi. Ulardan foydalanishning afzalliklari, e’tiborli jihatlari, talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi tizimli ravishda aniqlanildi.

Tadqiqot davomida me’yoriy-huquqyi va dasturiy hujjatlarni tahlil qilish metodi yordamida ushbu tadqiqot oliy ta’lim tizimini rivjlantirish uchun mo‘ljallangan nizom va qarorlardan qatiy belgilangan bandlarning ijrosini ta’minlashga xizmat qilishi ochib berildi.

Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug‘ullanishga zamin yaratish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni shakllantirish, kativlikni shakllantirish bilan birgalikda ongli tushunish va mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik qobilyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, mustaqil ta’limning to‘g‘ri va zamonaviy yondashuvlarda tashkil qilinishi nafaqat o‘quv faoliyatida balki, mustaqil o‘z ustida ishlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingiliz tili yo‘nalishi talabalariga umumiy pedagogika fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini boshqa yo‘nalishlarga nisbatan zamonaviy yondashuvlarda ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Chunki, ular til biladi va mustaqil ta’lim jarayonida ingiliz tiliga oid bo‘lgan adabiyotlarni ham bemalol tahlil qila oladi. Bu jarayonda faqatgina umumiy pedagogika fani o‘qituvchisidan ham ingiliz tilini bilish talab etiladi. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida ingiliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’limini quyidagi yondashuvlar asosida tashkil qilish – ularning mustaqil fikrlashini, kasbiy kompetensiyalarini, ijodiy fikrlashini o‘stirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Umumiy pedagogika fanidan ingiliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’limini tashkil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – bu mazmunni (pedagogika) o‘qitish bilan ingliz tilini o‘rgatishni integratsiyalashgan holda olib borish yondashuvidir. Bu yondashuv ingliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali tashkil etishda juda qulay metodik imkoniyatlar yaratadi.

Umumiy pedagogika fanida CLILni qo‘llash shuni anglatadiki, talaba pedagogik tushunchalarni ingliz tilida o‘rganadi, tahlil qiladi va qo‘llaydi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining mazmuni ham mazkur ikki maqsadga xizmat qiladi:

1. Pedagogika bilimini chuqurlashtirish,
2. Ingliz tilini amaliy qo‘llash va rivojlantirish.

Ushbu yondashuv nafaqat talabalarning kasbiy kompetensiyalarini balki o‘qituvchining ham kasbiy sifatlarini boyitib boradi, o‘z ustida ishlashga xizmat qiladi. CLIL yondashuvini tatbiq etish 4K modelining tamoyillariga tayanadi. CLIL talabalarga nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki tildan axborotni qabul qilish va uzatish vositasi sifatida foydalanib, kasbiy sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. O‘qitishga

bunday yondashuv bilan o‘quv predmeti ham, chet tili ham bir vaqtda o‘rganiladi. Shu bilan birga, chet tili boshqa fanlarni o‘rganish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Integratsion yondashuv jarayoni muayyan fanlar o‘rtasidagi aloqalarni sifatli va mazmunli bir biriga bog‘lashni, fandan ko‘zlangan maqsadga yuqori darajada erishishni va fanlararo bilimlarni chuqurlashtirish va oshirishni o‘zida maqsad qiladi. Shuningdek, SH.N.Muslimov va CH.S.Lutfullayevalar integratsiyani psixalogik, pedagogik, falsafiy jihatlardan o‘rganib, integratsiyaning ta’limda ikki xil turda qo‘llanilishini takidlaydi. Birinchidan, ta’lim turlari (bo‘g‘inlari) orasidagi integratsiya. Bunda ta’limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog‘langan holda uning keyingi ta’lim turlarida davom etishini, ikkinchidan, o‘quv fanlari orasidagi integratsiya. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshirilishini o‘rganadi. Bundan tahlil qilinganda, bo‘lajak ingiliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini integratsion yondashuv asosida tashkil qilish – ikkinchi fanlararo va predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladigan turiga kirishi namoyon bo‘ladi. Asosiysi, mustaqil ta’limni tashkil qilayotganda ingiliz tili fanidan maktab darsliklariga topshiriqlarning integratsiya qilinish jarayoni ham kirishidir.

Zamonaviy texnologik yondashuv pedagogik jarayonga kuchli ta’sir etuvchi eng so‘nggi, samarali axborot kommunikatsion texnalogiyalarini, ta’limiy platformalarni, dasturlarni ta’lim jarayoniga joriy etish va shu bilan birgalikda, uning samaradorligi, bir butunligi, muvaffaqiyatini belgilab beruvchi muhim bir yondashuvdir.

Bugungi biz yashayotgan davr, XXI asr – axborot texnalogiyalar davridir. Shuningdek, hayotimizni ularsiz tasavvur qilish va rivojlantirishning imkoni yo‘q. Shu sababli, XXI asr axborot kommunikatsion texnalogiyalaridan to‘g‘ri maqsadda va unumli foydalanish uchun, avvalo bo‘lajak ingiliz tili o‘qituvchilarimizda so‘ngra ular orqali o‘quvchilarida kompyuter savodxonligidan, turli xil ta’limiy platforma va dasturlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirilishi zarur va shartdir. Shu maqsadda, tadqiqotda bo‘lajak ingiliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini zamonaviy kompyuter texnalogiyalaridan foydalangan holda tashkil etishning e’tiborli xususiyatlari va bosqichlari yoritiladi.

Kreativ yondashuv ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi, ijodkorlik qilishga, mustaqil fikrlashga, muammoga optimal yechim tanlashga o‘rgatuvchi va asosiy markazga ta’lim oluvchining rivojlanishini qo‘yuvchi jarayon hisoblanadi. Shuningdek, turli ta’lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo‘yishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi va uni amalga oshirishi hamda o‘zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir [7:130]. Bu fikrlardan shu aniqki, to‘g‘ri, kreativ yondashuv asosida tashkil qilingan mustaqil ta’lim – talabani mustaqil o‘z ustida ishlashga, ijodkorlik qilishga, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikma va imkoniyatlarini shakllantirishga, uning kasbiy rivjlanishiga yordam beruvchi, faollashtiruvchi, olgan bilimlarini boyituvchi, mustahkamlovchi va mustaqil, tanqidiy fikrlashga undovchi muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayonda talaba markaziy nuqtada turadi va u o‘qituvchisiz mustaqil ishlaydi. Talaba butun jarayon davomida ishtirok etadi. Professor o‘qituvchi esa, talabani faol ishtirok etishga chorlaydi.

Akmeologik yondashuv izchillik, ya’ni mukammallik cho‘qqisiga intilish, bu- inson hayotining ajralmas xususiyati bo‘lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyillik anglatiladi. Shu bilan birgalikda, talabalarda fikrlash va xulq-atvorni tanlash erkinligini, o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonch, texnik, ta’lim va yuqori madaniy darajaga erishish kabi keng dunyoqarashni rivojlantirish jarayonidir.

Akmeologiya (akme) – yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng yaxshi davr degan manolarni bildiradi. Tadqiqotchi Xatima Shayxova «Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat” ekanligini o‘z asarlarida ifodalaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, akmeologik yondashuv asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish – eng so‘nggi va eng samarali axborot texnalogiyalarini, zamonaviy va xalqaro tajribalarda sinalgan o‘qitish texnalogiyalarini, yuksak darajada talabani mustaqil, ijodiy fikrlashga undovchi, interaktiv ta’lim metodlari, vositalari va uslullarini muayyan fan mustaqil ta’limiga integratsiya qilish jarayonidir [8:110]. Bu esa o‘z o‘zidan professor o‘qituvchining akme shaxs bo‘lishi kerakligini talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv – talabaning faqat bilimini emas, balki amalda qo‘llay olish qobiliyatini, kasbiy ko‘nikmalarini, ijtimoiy faolligini va shaxsiy mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir [9:128]. Bu yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda, ayniqsa umumiy pedagogika fanidagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuvda beriladigan topshiriqlar shunchaki “matn o‘qish” yoki “savollarga javob berish” emas. Balki, ular ko‘nikma, malaka va faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Umumiy pedagogika fanidan beriladigan mustaqil ishlar turli metodik yondashuvlar asosida tashkil etilganda, talabalarning kasbiy, til, intellektual va shaxsiy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati keskin ortadi. CLIL, integratsion, kreativ, texnologik, akmeologik va kompetensiyaviy yondashuvlar talabalarning mustaqil ishlarni bajarish jarayonida turli xil malakalarni egallashiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini mukammal shakllantiradi.

CLIL, integratsion, kreativ, texnologik, akmeologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida umumiy pedagogika fanidan tashkil qilingan mustaqil ishlarning ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun afzalliklari:

- ✓ Ingliz tilida pedagogik mazmunni o‘rganish natijasida til va mazmun birgalikda rivojlanadi;

✓ Talaba pedagogik terminlarni ingliz tilida o‘zlashtiradi;

✓ Mustaqil ta’lim jarayonida tahlil qilish, sharhlash, taqdimot qilish kabi kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi;

✓ Xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasi ortadi;

✓ Talabalarda ijodkorlik, divergent fikrlash, yangi g‘oyalar yaratish rivojlanadi;

✓ Mustaqil ishlar zerikarli bo‘lmaydi, talabalar faolligi oshadi;

✓ Masalalarga noodatiy yondashuv shakllanadi.

✓ Talabalar o‘z yechimlarini ishlab chiqadi (poster, video, loyiha, essay).

✓ Talabaning raqamli kompetensiyasi rivojlanadi;

✓ Talabalar zamonaviy raqamli vositalarda ishlashni o‘rganadi (Google Classroom, Quizlet, Kahoot, Moodle);

✓ Talabada kasbiy o‘zini rivojlantirish, o‘ziga-o‘zi talab qo‘yish paydo bo‘ladi.

✓ Talabada mas’uliyat, o‘z o‘zini boshqarish va o‘zini rivojlantirish refleksiyasi kuchayadi.

✓ Kelajak o‘qituvchi sifatida o‘z “men”ini shakllantiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Umumiy pedagogika fani bu jarayonning nazariy asoslarini yaratadi, zamonaviy texnologiyalar esa mustaqil ta’limni amaliy jihatdan boyitadi.

Zamonaviy yondashuvlar asosida mustaqil ta’limni tashkil qilingan topshiriqlarni bajarish natijasida bo‘lajak ingiliz tili o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammoga optimal yechim tanlash, xorijiy til kompetensiyalari, kasbiy mas’uliyati va o‘z o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Tursunaliyeva M.A. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida clil yondashuvi: o‘quv natijalarini baholash va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konfrensiyasi, Volume 3, issue 50, 99-103-b.

2. Shayxova X.A. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. – Toshkent: «G ‘afur G‘ulom» nomidagi NMIU, 2009.

3. Rejapova N.B. CLIL technology in multilingual education and training of competitive personnel. // In American Journal of Philological Sciences, Vol. Vol.05, Issue 02 – P.101-103.

4. Muslimov Sh.N. Lutfullayeva Ch.S. Integratsion yondashuv mohiyati va nazariy jihatdan tahlili. // Innovative Development in Educational Activities jurnali, 2023, VOL. 2, ISSUE 9, 134-141-b.

5. Rashidova O. The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, 2023, volume 3, issue 10. – P. 261-270.

6. Xo‘jjiyev S., Axadova D. O‘qituvchining innovatsion faoliyatda akmeologik yondashuvning o‘rni. “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” nomli xalqaro konfrensiya to‘plami, 2022. – P. 1530-1533.

7. Qurbonov B.N. Didactic possibilities of organizing independent education based on a creative approach in higher education institutions. // Journal of Social Management, 2023. – P. 123-145.

8. Rashidova O.K., Begmatova D., Rashidov A.E. AI-assisted Independent Learning Model in Education of Industry 4.0, // 2026 International Russian Smart Industry Conference (SmartIndustryCon), Sochi, Russian Federation, 2026. – P. 308-313.

9. Rashidova O. Use of innovative methods and tools in organizing independent education in higher education countries - as a pedagogical problem. // Fan va ta’lim integratsiyasi (integration of science and education), 2024, 1(2). – P. 84-93,.